

DAVLAT XARIDLARIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNING FAOL ISHTIROKINI TA'MINLASHNING SAMARALI MEXANIZMLARI

Xudaynazarova Maxmuda Azimjanovna

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekistonning amaldagi mexanizmlari (elektron do'kon, teskari auktsion, raqobatli takliflar, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar), ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi hamda dunyoning yetakchi davlatlari (AQSh, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi, Gruzziya) tajribasi o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *davlat xaridlari, kichik va o'rta biznes, KOB, majburiy kvota, lotlarni bo'lish, subkontraktlash, virtual narx pasaytmasi, davlat kafolati, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma, elektron platforma,*

Kirish

So'nggi 8 yilda O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta tadbirkorlik sub'yektlari soni 3,2 baravarga oshib, 2025 yil birinchi yarmida 1 050 000 dan ortiqni tashkil etdi. Ushbu sub'yektlar mamlakat yalpi ichki mahsulotining 62 foizini va bandlikning 78 foizini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, davlat xaridlari hajmi 2025 yil 11 oyi yakuniga ko'ra 178 trillion so'mdan oshdi va bu katta moliyaviy resursning asosiy qismi hali ham yirik korxonalar va davlat ulushli kompaniyalar qo'lida qolmoqda. 2025 yilda KOBning davlat xaridlaridagi ulushi 42,8 foizga yetgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich Janubiy Koreya (78,6%), Daniya (72%), Gruzziya (71%) va Ukraina (68%) kabi mamlakatlardan ancha orqada. Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, har bir trillion so'mlik davlat xaridini kichik biznes orqali amalga oshirish qo'shimcha 12–15 ming ish o'rni yaratadi, narxlarni 11–18 foizga tushiradi va korrupsiya xavfini 4 baravar kamaytiradi. Shu sababli, davlat xaridlarini kichik va o'rta biznes uchun ochiq, adolatli va jozibador qilish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy muammolarni hal qilishning eng muhim shartlaridan biriga aylandi. Ushbu maqola O'zbekistonning amaldagi mexanizmlarini tahlil qilish, dunyo tajribasini o'rganish va 2030 yilga mo'ljallangan kompleks takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Asosiy qism

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta tadbirkorlik sub'yektlari soni 2025 yilning birinchi yarmida 1 050 000 dan oshdi, bu 2017 yilga nisbatan 3,2 baravar ko'p. Ushbu sub'yektlar mamlakat yalpi ichki mahsulotining 62 foizini, bandlikning esa 78 foizini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, davlat xaridlari hajmi 2025 yilning 11 oyi

yakuniga ko‘ra 178 trillion so‘mdan oshib, budget xarajatlarining muhim qismini tashkil etmoqda. Bu katta moliyaviy resursning asosiy qismi hali ham yirik korxonalar, davlat ulushiga ega kompaniyalar va chet el firmalari qo‘lida qolmoqda. Rasmiy statistikaga qaraganda, 2025 yilda davlat xaridlarida kichik va o‘rta biznes ulushi 42,8 foiz atrofida bo‘lib, bu 2021 yildagi 22 foizdan sezilarli yaxshilanish bo‘lsa-da, Janubiy Koreya (78,6%), Daniya (72%), Gruzuya (71%) va hatto Ukraina (68%) kabi mamlakatlardan ancha orqada qolmoqda.

Davlat xaridlari orqali kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash nafaqat iqtisodiy o‘shishni tezlashtiradi, balki bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, har bir trillion so‘mlik davlat xaridi kichik biznes orqali amalga oshirilsa, qo‘shimcha 12–15 ming yangi ish o‘rni yaratiladi, raqobat kuchayishi tufayli o‘rtacha narxlar 11–18 foizga tushadi, korrupsiya xavfi esa yirik tenderlarga nisbatan 4 baravardan ko‘proq kamayadi. Shu sababli, davlat xaridlarini kichik va o‘rta biznes uchun ochiq, adolatli va jozibador qilish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishining eng muhim shartlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimi kichik biznes (KB) subyektlari uchun muhim imkoniyatlar yaratadi, chunki bu ularga davlat buyurtmalarida ishtirok etish orqali o‘shish va rivojlanishga yordam beradi. Davlat xaridlari – bu davlat organlari tomonidan tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish jarayoni bo‘lib, unda KB subyektlarining ishtirokini ta‘minlash uchun maxsus mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ushbu mexanizmlar raqobatni oshirish, shaffoflikni ta‘minlash va KB uchun kirish to‘siqlarini kamaytirishga qaratilgan. Quyida berilgan ma‘lumotlar asosida (elektron do‘kon, teskari auksion, raqobatli takliflar va maxsus axborot portali) bu mexanizmlarning tahlilini ko‘rib chiqamiz (4.1.1-jadval). Tahlil mexanizmlarning tavsifi, KB uchun foydalari, potentsial kamchiliklari va umumiy samaradorligiga asoslanadi.

1-jadval

Kichik biznes subyektlarining davlat xaridlaridagi ishtirokini ta‘minlovchi asosiy mexanizmlari

Mexanizm	Tavsif	Foyda uchun
Elektron do‘kon	Standart tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish uchun platforma, shartnoma summasi minimal ish haqining 250 baravarigacha.	Kam xarajatli va tez ishtirok, KB murakkab baholashsiz.

Teskari auktsion	Narxga asoslangan raqobatli elektron usul, summasi 5000 baravargacha.	Faqat narx bo'yicha raqobat, KB uchun oson kirish.
Raqobatli takliflar	Tovarlarga 5000-25000 baravar, ish/xizmatlarga 25000 baravargacha.	Sifat va shartlar bo'yicha baholash, 30 kunlik e'lon.
Maxsus axborot portali	Barcha e'lonlar, takliflar va natijalarni elektron joylashtirish.	Bepul va vaqtida kirish, qog'oz ishlarini kamaytirish.

Ushbu mexanizmlar KB subyektlarining davlat xaridlaridagi ishtirokini ta'minlashda bir-birini to'ldiruvchi tizimni yaratadi: elektron do'kon va teskari auktsion kichik va tez buyurtmalar uchun, raqobatli takliflar yirik loyihalar uchun, axborot portali esa umumiy shaffoflik uchun. Asosiy afzalliklar – raqamli format, cheklangan summalar va narx/sifat raqobati, bu KB uchun kirish to'siqlarini kamaytiradi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Natijada, KB davlat xaridlarining 30-40% ini egallashi mumkin (umumiy tajribaga asoslanib).

Biroq, potentsial muammolar mavjud: moliyaviy cheklovlar, murakkab baholash va raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi. KB uchun o'quv dasturlari va subsidiyalarni joriy etish orqali mexanizmlarni yaxshilash mumkin. Umumiy olganda, bu tizim O'zbekiston iqtisodiyotida KB rolini kuchaytirib, raqobatni va innovatsiyalarni oshiradi.

Dunyo tajribasida bu masalani eng muvaffaqiyatli hal qilgan mamlakatlardan biri Qo'shma Shtatlardir. 1953 yilda qabul qilingan Small Business Act 70 yildan ortiq vaqt davomida bir necha bor takomillashtirilib, bugungi kunda federal darajada har yili davlat xaridlarining kamida 23 foizi kichik biznesga berilishi qonunan belgilab qo'yilgan. 2024 moliyaviy yilda bu ko'rsatkich 27,8 foizga yetdi, ya'ni 712 milliard dollarlik umumiy xariddan 198 milliard dollari kichik kompaniyalarga nasib etdi. AQShda "set-aside" deb ataluvchi maxsus tenderlar mavjud: agar biror tovar yoki xizmat bo'yicha ikki va undan ortiq kichik kompaniya raqobatbardosh taklif bersa, tender avtomatik ravishda faqat ular orasida o'tkaziladi. Bundan tashqari, yirik kompaniyalar davlat kontraktini yutgan taqdirda ham uning 20–40 foizini subkontrakt sifatida kichik biznesga berishga majbur. Small Business Administration (SBA) alohida federal agentlik sifatida kichik tadbirkorlarga bepul treninglar, sertifikatlash, kredit kafilligi va hatto yuridik maslahatlar beradi. Maxsus dasturlar orqali ayollar,

veteranlar, ozchilik millatlari va chekka hududlarda yashovchi tadbirkorlar qo‘shimcha imtiyozlarga ega.

Janubiy Koreya bu borada dunyoda yetakchi hisoblanadi. 2024 yilda 120 milliard dollarlik davlat xaridlarining 94,3 milliardi, ya’ni 78,6 foizi kichik va o‘rta biznesga berildi. Bu natijaga erishishda asosiy vosita “faqat KOB uchun” tenderlar bo‘ldi – umumiy kontraktlarning 55 foizdan ko‘prog‘i shu tarzda o‘tkaziladi. Qolgan tenderlarda kichik biznes takliflari “virtual narx pasaytmasi” oladi, ya’ni ularning taklifi eng arzon bo‘lmasa ham, baholashda 5–10 foizgacha arzonlashtirilib hisoblanadi. Davlat idoralari rahbarlarining yillik samaradorlik ko‘rsatkichlarida (KPI) kichik biznesga berilgan kontraktlar ulushi 30 foizgacha og‘irlikka ega. Bundan tashqari, 4800 turdan ortiq tovar va xizmatlar ro‘yxati mavjud bo‘lib, davlat idoralari ularni faqat kichik va o‘rta ishlab chiqaruvchilardan sotib olishga majbur.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ham o‘ziga xos yondashuvga ega. 2014/24/EU direktivasi bo‘yicha davlat buyurtmachilari yirik kontraktlarni majburiy ravishda kichikroq lotlarga bo‘lishi shart. Daniyada tenderlarning 83 foizi lotlarga bo‘linadi, natijada kichik biznes ulushi 72 foizga yetadi. Germaniyada KfW banki orqali davlat kafolati 0,3 foizgacha arzon narxda beriladi. Italiyada 2024 yildan boshlab kichik biznes takliflariga qo‘shimcha 10 ball berish joriy etildi. Fransiyada esa qurilish va ta’mirlash kontraktlari bo‘yicha oldindan to‘lov 50 foizgacha majburiy qilingan.


Yaqin qo‘shnilar orasida Gruzija alohida e‘tiborga loyiq. ProZorro tizimiga o‘xshash to‘liq elektron platforma va “e-Catalog” mexanizmi orqali davlat idoralari ko‘p turdagi tovarlarni faqat kichik biznesdan, hatto narxi 15 foizgacha qimmat bo‘lsa ham, sotib olishga majbur. Natijada 2024 yilda kichik biznes ulushi 71 foizga yetdi. Ukrainada ham ProZorro tizimi urush sharoitida ham samarali ishlayapti, 2024 yilda kichik va o‘rta biznes ulushi 68 foizni tashkil etdi.

Elektron tender platformasi (85%) eng yuqori samaradorlik ko‘rsatkichiga ega. Elektron tizim orqali davlat xaridlari jarayoni shaffof bo‘lib, kichik va o‘rta biznes vakillari geografik joylashuvidan qat’iy nazar tenderda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Imtiyozli kredit dasturlari (78%) ikkinchi o‘rinda turadi. KOB subyektlari ko‘pincha moliyaviy resurslar yetishmasligidan davlat buyurtmalarini bajara olmaydi. 1,5 mlrd so‘mgacha, 7 yil muddatga beriladigan imtiyozli kreditlar bu muammoni hal qilishda muhim vosita hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar (72%) mexanizmi ham yuqori samaradorlikka ega. 10 mlrd so‘mgacha qiymatdagi shartnomalarni bevosita tuzish imkoniyati KOB uchun murakkab tender jarayonlarini chetlab o‘tish imkonini beradi.

Konsalting xizmatlari (60%) eng past ko‘rsatkichga ega, chunki KO‘B egalari ko‘pincha bepul maslahat olish imkoniyatidan xabarsiz yoki bu xizmatlar hududlarda yetarli darajada rivojlanmagan (1-rasm).



* Elektron platformalar KO‘B ishtirokini 85% gacha oshiradi

1-rasm. Samarali mexanizmlari reytingi (%)

Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6663044> asosida muallif ishlanmasi


O‘zbekistonda so‘nggi 8 yilda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. 2018 yildagi Prezident Farmoni, 2021 yildagi yangi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun va 2023 yildagi PQ-56-son qaror natijasida bir qator imtiyozlar joriy etildi: tender kafolati 1 foizgacha, shartnoma kafolati 3 foizgacha tushirildi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga 15 foizgacha narx ustamasi berilmoqda, oldindan to‘lov 50 foizgacha yetkazildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar limiti 2025 yilda 300 million so‘mgacha ko‘tarilishi rejalashtirilmoqda. Shu sababli 2021 yildagi 22 foizdan 2025 yilda 42,8 foizgacha o‘sish kuzatildi.

Biroq, chuqur tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hali ko‘p to‘siqlar saqlanib qolmoqda. Eng katta muammo – tenderlarning 62 foizi hali ham yirik lotlarda e‘lon qilinmoqda, bu esa kichik kompaniyalarning ishtirok etish imkoniyatini keskin cheklamoqda. Ikkinchi katta to‘siq – bank kafolati olishdagi qiyinchiliklar: tijorat banklari 15–25 foizgacha haq talab qilmoqda. Uchinchi muammo – hujjatlar soni va ularni tayyorlashning murakkabligi: o‘rtacha 28–35 turdagi hujjat talab qilinmoqda. To‘rtinchidan, subkontraktlash majburiy emasligi sababli yirik kompaniyalar davlat kontraktlarini olib, kichik biznesni chetlab o‘tmoqda. Beshinchidan, elektron platforma (xarid.uz) funkcionalligi hali ham past, mobil ilova va real vaqt monitoringi yetarli darajada rivojlanmagan.

Hududiy jihatdan ham katta farq mavjud: Toshkent shahridagi kichik biznes ulushi 51 foiz bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston va Xorazmda 28–32 foiz atrofida. Bu esa mintaqaviy tengsizlikni yanada kuchaytirmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston sharoitiga to‘liq moslashtirilgan kompleks yechimlar taklif etilmoqda. Birinchidan, 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan bosqichma-bosqich majburiy kvota joriy etish: 2026 yilda 50 foiz, 2028 yilda 60 foiz, 2030 yilda 70 foiz. Ikkinchidan, kontrakt qiymati 5 milliard so‘mdan oshsa, buyurtmachini uni majburiy ravishda 5–15 ta kichik lotga bo‘lishga majburlash (Yevropa tajribasi). Uchinchidan, kichik biznes takliflariga 10–15 foizgacha virtual narx pasaytmasi berish (Janubiy Koreya modeli). To‘rtinchidan, Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi negizida Davlat kafolat jamg‘armasi tashkil qilib, bank kafolati o‘rniga 0,5 foizdan ko‘p bo‘lmagan haq evaziga davlat kafolati berish. Beshinchidan, barcha qurilish, ta‘mirlash va xizmat ko‘rsatish kontraktlari bo‘yicha oldindan to‘lovni 50 foizgacha majburiy qilish. Oltinchidan, yirik kompaniyalar uchun subkontraktlash majburiyatini 30–40 foizgacha belgilash. Yettinchidan, “bir darcha” prinsipi bo‘yicha barcha hujjatlar ETDS orqali avtomatik yuklanadigan qilib, talab qilinadigan hujjatlar sonini 8–10 tagacha qisqartirish. Sakkizinchidan, har viloyatda “Davlat xaridlari bo‘yicha KOB akademiyasi” tashkil qilib, tadbirkorlarga bepul treninglar va mentorlik berish.

Kichik va o‘rta biznesning (KOB) davlat xaridlaridagi ishtiroki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, bandlikni ta‘minlash va byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishni kuchaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Diagrammada keltirilgan mexanizmlar KOBning davlat xaridlaridagi faolligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvning tarkibiy qismlarini aks ettiradi. Har bir mexanizmning ulushi uning amaliyotda nechog‘li muhim o‘rin tutishini belgilab beradi(4.1.2-rasm).



2-rasm. Davlat qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari ulushi

Manba: <https://asr.gov.uz/news/11294> hamda <https://lex.uz/uz/docs/-6663044>

Tahlildan ko‘rinib turibdiki, davlat xaridlarida KOB ishtirokini kengaytirish ko‘p yo‘nalishli kompleks yondashuvni talab qiladi. Eng samarali mexanizmlar sifatida **moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, huquqiy himoya, va ta‘lim-konsalting xizmati** ajralib turadi. Aynan ushbu uch yo‘nalish KOBning tender jarayonlariga kirib kelish to‘siqlarini kamaytiradi, ularning raqobatbardoshligini oshiradi va bozor mexanizmlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda bozorga chiqish uchun qo‘shimcha yordam ko‘rsatish KOBning uzoq muddatli barqaror o‘shishiga xizmat qiladi.

Ushbu choralar to‘liq amalga oshirilganda 2030 yilga borib quyidagi natijalarga erishish real: davlat xaridlarida kichik va o‘rta biznes ulushi 70 foizga yetadi, qo‘shimcha 350–400 ming yangi ish o‘rinlari yaratiladi, byudjet mablag‘lari 10–14 foizgacha tejab qolinadi, korrupsiya darajasi sezilarli kamayadi, mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy farq qisqaradi. Eng muhimi, millionlab fuqarolar o‘z biznesini boshlash va rivojlantirish uchun real imkoniyatga ega bo‘ladi.

Xulosa

O‘zbekistonda davlat xaridlarida kichik va o‘rta biznes ulushini 2021 yildagi 22 foizdan 2025 yilda 42,8 foizgacha oshirish katta yutuq bo‘ldi, biroq mamlakat hali dunyoning yetakchi davlatlaridan (Janubiy Koreya, Daniya, Gruziya) sezilarli orqada qolmoqda. Yirik lotlar, bank kafolati qimmatligi, hujjatlar murakkabligi va subkontraktlashning majburiy emasligi kabi to‘siqlar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun majburiy kvotani bosqichma-bosqich 70% ga yetkazish, kontraktlarni majburiy ravishda kichik lotlarga bo‘lish, kichik biznes takliflariga 10–15% virtual narx pasaytmasi berish, davlat kafolati jamg‘armasi tashkil qilish, oldindan to‘lovni 50% gacha majburiy qilish va subkontraktlashni 30–40% gacha belgilash kabi kompleks choralar zarur.

Ushbu takliflar to‘liq amalga oshirilganda 2030 yilga borib davlat xaridlarida KOB ulushi 70 foizga yetadi, qo‘shimcha 350–400 ming yangi ish o‘rni yaratiladi, byudjet mablag‘lari 10–14 foiz tejab qolinadi, korrupsiya darajasi va mintaqaviy tengsizlik keskin kamayadi. Natijada millionlab fuqarolar barqaror daromad manbaiga ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiyoti yanada raqobatbardosh, inklyuziv va barqaror xususiyatga ega bo‘ladi.